

Bayzakova Dilbar Fayziyevna

Jizzax politexnika instituti dotsent v.b.

O'ZBEKISTONDA KICHIK VA O'RTA BIZNESNI RIVOJLANTIRISH UCHUN YARATILAYOTGAN SHART-SHAROITLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishi, kichik va o'rta biznesning o'rni, mamlakatimizda uni rivojlantirish uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar va davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, kichik biznes, o'rta biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy islohotlar, oilaviy tadbirkorlik, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, aholi bandligi.

Bayzakova Dilbar Fayziyevna

Jizzakh Polytechnical Institute, Acting Associate Professor

CONDITIONS CREATED FOR THE DEVELOPMENT OF SMALL AND MEDIUM-SIZED BUSINESSES IN UZBEKISTAN

Abstract: This article describes the sustainable of the economy through economic reforms in Uzbekistan, the role of small and medium-sized business, conditions created for its development in our country, and state support.

Key words: Entrepreneurship, small business, medium business, economic reforms, family business, macroeconomic indicators, population employment.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun keng qamrovli ekotizim yaratildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kichik va o'rta biznesning iqtisodiyotdagi o'rnini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 19.03.2025 yildagi PF-50-son Farmonida kichik va o'rta biznesning jadal rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, hududlarda biznes muhitini yanada yaxshilash, iqtisodiy o'sishga turtki beruvchi yangi biznes tashabbuslarni amalga oshirishga ko'maklashish, raqobatbardosh mahsulotlar bilan yangi tashqi bozor segmentlariga chiqishni qo'llab-quvvatlash

masalalariga e'tibor qaratilgan. Prezident Sh. Mirziyoyevning so'zlariga ko'ra, bankning faoliyati ham, ishlash usullari ham, jumladan, moliyalashtirish mexanizmlari ham jiddiy o'zgarishlarga uchraydi. Xususan, har bir hududdagi bank huzurida kichik biznes markazi tashkil etiladi. Mazkur markazlar tadbirkorlar tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan biznes loyihalarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.¹ Ular yangi loyihalarni amalga oshirishga intilayotgan tadbirkorlarni mustaqil ravishda o'qitish, zarur mutaxassislarni jalb etish, buxgalteriya hisobi, soliq, audit, marketing, yuridik va boshqa maslahat xizmatlarini taklif etadi. Markazlar yangi korxonalarga zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish, xodimlarning malakasini oshirish, mahsulotlarini samarali yo'lga qo'yishda yordam beradi. Prezident o'z nutqida yuqorida aytilgan jamg'armalarga mustaqil ravishda investitsiyalarni jalb qilish huquqi berilganini ta'kidladi. Ushbu jamg'armalar kelgusi yilda o'rta biznes uchun qo'shimcha 1 milliard dollar sarmoya jalb etishni maqsad qilgan. Eksportni kengaytirishning muhim imkoniyatlaridan biri O'zbekistonga nufuzli xorijiy brendlarni jalb qilishdir.

Mamlakatimizda "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident qarori (PQ-306 son, 14.09.2023 y) qabul qilindi va shu qarorga ko'ra, 2023 yil 1 oktyabrdan "Kichik biznesni uzluksiz qo'llab-quvvatlash" kompleks dasturi amalga oshiriladi.²

Dasturni 2023-2026 yillarda amalga oshirish uchun davlat mablag'lari hisobidan 6 trillion so'm va xalqaro moliya institutlarining 1,2 milliard AQSH dollari miqdoridagi mablag'lari yo'naltirilishi ko'zda tutilmoqda. Xususan, "Biznesni rivojlantirish banki" ATB ta'sischiligida "Kichik biznesni rivojlantirish jamg'armasi" va Jamg'arma tarkibida hududlarda 14 ta "Kichik biznesga

¹ O'zbekiston Respublikasi. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 18 avgustda tadbirkorlar bilan o'tkazgan Ochiq Muloqoti.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. PQ-306 son, 14.09.2023.

ko'maklashish hududiy markazlari" tashkil etilgani qayd etildi. Ushbu markazlar orqali kichik biznes loyihalarini tanlash, tashabbuskorlarni o'qitish, moliyalashtirish, axborot bilan ta'minlash, biznes rejalar va texnik iqtisodiy asoslarni ishlab chiqish, bozor topish bilan bog'liq kompleks xizmatlar ko'rsatiladi. Hozirgi murakkab sharoitda barcha davlatlar o'z yurtidagi ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishni ustuvor yo'nalish sifatida ko'rayapti. Biz ham raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirish bo'yicha tadbirkorlarimizni yanada keng qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bugun ham tadbirkorlik uchun qo'shimcha sharoitlar yaratish bo'yicha muhim yangi tashabbuslar va yo'nalishlar belgilab berildi:

Birinchi yo'nalish – kichik va o'rta biznes uchun moliyaviy resurslarni ko'paytirish. O'tgan yili kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun yangi tizim joriy qildik. Bu borada Biznesni rivojlantirish banki va Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi tashkil etilib, yil boshidan 35 mingdan ortiq tadbirkorlarga o'rtacha 100 million so'mdan jami 3,5 trillion so'm mikro kreditlar ajratildi³. Bundan tashqari, "Biznesga birinchi qadam" dasturi bo'yicha tadbirkorlikni endi boshlayotgan 115 ming aholiga 1 trillion so'mlik mikroqarzlar berildi.

Ikkinchi yo'nalish – biznesni infratuzilma, yer va energiya bilan ta'minlash.

Ochiq muloqot doirasida kelib tushgan 11 mingta murojaatdan 2 mingtasi yer va infratuzilma bilan bog'liq. Joylarda o'tkazilgan so'rovda ham 55 foiz tadbirkor elektr energiyasi, gaz ta'minotida, tarmoqqa ulanishda muammo borligini aytgan.

Bilasizlarmi, mamlakatimizdagi 44 million 800 ming gektar yerning bozor qiymati hisoblansa, aholi va tadbirkorlarda qanchadan-qancha "iqtisodiy aktiv" paydo bo'ladi.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o'tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. 2024 yil 20 avgust.

Uchinchi yo‘nalish – ichki bozorda teng raqobat muhitini yaratish, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish.

Joriy yilning yetti oyida eksportimiz 13 foizga o‘shib, 10 milliard dollardan oshdi, avval eksport qilmagan 1 ming 610 ta korxona tashqi bozorlarga chiqdi. Bunday korxonalar soni 6 mingdan oshdi.

To‘rtinchi yo‘nalish – xizmatlar sohasiga yangi turtki berish.

O‘zbekistonda band aholining 52 foizi xizmatlar sohasida ishlayapti. Ishlab turgan korxonalarning 68 foizi (264 mingtasi) ham xizmatlar sohasiga to‘g‘ri keladi. Lekin sohada band bo‘lganlarning atigi 4 foizi yuqori qo‘shilgan qiymat beradigan yo‘nalishda faoliyat yuritayapti.⁴ Bu yo‘nalishda yangi loyihalarni amalga oshirish uchun barcha sharoitlar yaratiladi. IT parkda sun‘iy intellekt markazi ochiladi. Loyihalarni moliyalashtirish uchun 50 million dollar ajratiladi.

Beshinchi yo‘nalish – biznes uchun to‘siq va g‘ovlarni yanada qisqartirish.

Biz so‘nggi yillarda tadbirkorlik yo‘lidagi byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha katta islohotlarni amalga oshirdik. Lekin tadbirkorlarimiz haligacha ayrim muammolar saqlanib qolayotganini bildirgan.

Birinchidan, tadbirkorlik faoliyatini to‘xtatishga asos bo‘ladigan qonun buzilish holatlari darajasi belgilanmagan.

Ikkinchidan, tadbirkorlarni jinoiy javobgarlikka tortish yanada liberallasadi. Soliqlarni to‘lashdan bo‘yin tovlash, degan jinoyat turi bor. Bunda tadbirkorning to‘lamagan solig‘i 100 million so‘mdan (bazaviy hisoblash miqdorining 300 baravari) oshsa, jinoyatchi bo‘lib qolmoqda. Lekin tadbirkorlarga imkon berilsa, bu summani bimalol to‘lay oladi, buning uchun ularni oylab tergov qilish shart emas.

Uchinchidan, kredit oldi-berdisida bank ham, tadbirkor ham tavakkal qiladi. Lekin amaliyotda bankning huquq va vakolatlari tadbirkorga nisbatan ancha ko‘proq. Masalan, kredit vaqtida qaytarilmasa, garovga qo‘yilgan mulkni bank

⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning mamlakatimiz tadbirkorlari bilan ochiq muloqot shaklida o‘tkazilgan uchrashuvdagi nutqi. 2024 yil 20 avgust.

shartnoma tuzilgan paytdagi qiymatida sotuvga chiqaradi. O'tgan 6 oyda banklar 1,3 trillion so'mga baholangan mingdan ziyod garovdagi mol-mulklarni auksionga chiqargan. Ushbu tashabbuslarni tez kunlarda qonun bilan mustahkamlab qo'yamiz. O'ylaymanki, bu takliflar sizlarga ma'qul.

To'rtinchidan, "snoslar" bo'yicha kompensatsiya to'lashda haligacha muammolar bor. Hozirda ushbu xarajatlar viloyat budjeti hisobidan qoplanayapti. Lekin ayrim viloyatlar budjetida mablag' kam qolayotgani uchun tadbirkorning pulini qoplab berish 5-6 yilga cho'zilib ketayapti.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni rivojlantirish uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar iqtisodiyotning diversifikatsiyasini ta'minlash hamda ijtimoiy barqarorlikni oshirishga katta hissa qo'shmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.PQ-366-son.15.11.2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.PQ-306 son,14.09.2023.
3. O'zbekiston Respublikasi. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 18 avgustda tadbirkorlar bilan o'tkazgan Ochiq Muloqoti.Xalq so'zi gazetasi,2023 yil,194..
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.PQ-306 son,14.09.2023.
5. Bayzakova D.F. Small business as the Main Driver of Economic Development. International journal on economics, finance and sustainable development. Vol. 5 No. 4 | April 2023.Indoneziya